



SAYLOV TIZIMI

Abdushukurov Og'abek Elboy o'g'li
Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalari Yurisprudensiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: elboykenjaev@gmail.com

Annotsatsiya: Siyosiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega saylov tizimi va uning roli saylov huquqi va saylov tizimining shakllanishi, O'zbekistonda saylov tizimining demokratik tamoyillari, demokratik xalq saylovining ustunligi, saylov tizimida yangi dasturlar, markaziy saylov kommissiyasining tashkil etilishi, aralash saylov tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Kalit so'zlar: saylov, markaziy saylov kommissiyasi, kodeks, inson huquq va erkinliklar.

Аннотация: Избирательная система и ее роль играют важную роль в нашей политической жизни. Право голоса и формирование избирательной системы, демократические принципы избирательной системы в Узбекистане, превосходство демократических народных выборов, новые программы в избирательной системе, создание Центральной избирательной комиссии, смешанная избирательная система и ее характеристики.

Ключевые слова: выборы, Центральная избирательная комиссия, кодекс, права и свободы человека.

Abstract: The electoral system and its role play an important role in our political life. The right to vote and the formation of the electoral system, democratic principles of the electoral system in Uzbekistan, the superiority of democratic popular elections, new programs in the electoral system, the creation of the Central Electoral Commission, mixed electoral system and its characteristics.

Key words: elections, Central Electoral Commission, code, human rights and freedoms.

Saylov tizimi — saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning majmui. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo'lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi. Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida saylov tizimining quyidagi turlari qo'llanadi:

Majoritar saylov tizimi deganda (frans. majorite — ko'pchilik so'zidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan mutlaq va malakali ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llanadi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va boshqalarda. Mutlaq ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) ko'p ovoz



(ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatida nisbatan ko'p ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish urniga 2-tur ovoz berish o'tkaziladi, buning natijalari boshqacha tizim bo'yicha aniqlanadi (masalan: Fransiyada Milliy Majlis — parlamentga saylovlarda mutlaq ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim, 2-tur ovoz berishda esa nisbatan ko'pchilikning ovozigacha asoslangan majoritar tizim qo'llanadi). Nisbatan ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimi

Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ruyxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori (odatda, kamida 4—5% qilib) o'rnatiladi. Bunda, shartga ko'ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarini taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma'lum bo'ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdoriga bo'linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi.

Aralash saylov tizimi

Aralash saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Masalan, Germaniyada Bundestagga saylovlarida aralash tizim qo'llanadi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim bo'yicha, 2-yarmi esa ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya subyektlari) da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi.



Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun esa yetmish beshta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan har besh yilda bir marta tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda belgilanadi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglari tegishli hududiy, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan, qoida tariqasida, saylovchilar soni teng holda har besh yilda bir marta tuziladi.

Saylov uchastkalari ham tumanlar va shaharlar hokimliklarining taqdimnomasiga binoan hududiy saylov komissiyalari tomonidan besh yil muddatga tuziladi.

Markaziy saylov komissiyasi endi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi saylovi bilan bir qatorda, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishni ham tashkil etadi. Saylov komissiyalari tarkibiga o'zgartirishlar kiritish tartibini belgilaydi. Mahalliy Kengashlar sayloviga doir saylov byulletenining shakli va matni namunasi ham endi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Bunday saylov tizimida partiyalar muhim o'rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarining ta'sirchan va samarador bo'lishiga intiladi. Partiya o'z dasturi orqali xalqni ishontira olsagina muayyan ovozga erishadi. Bu esa jamiyatimizda siyosiy plyuralizm bo'lishini ta'minlaydi.

Saylov — demokratiya ko'zgusi, deymiz. Bu jarayon orqali har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlari boshqaruvida bevosita qatnashadi hamda mamlakat



taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi. saylovlar xalqning davlat hokimiyati bilan aloqasini ko'rsatib turadi.

Shu bois, fuqarolarning mamlakat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida saylov qonunchiligini izchil takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratildi. Xalqimiz irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator normalar o'z aksini topdi.

Ayniqsa, saylovlarni professional, ochiq va demokratik tarzda tashkil etish va o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasining konstitutsiyaviy maqomi yanada mustahkamlandi. Xususan, saylov organlarining vertikal tizimini tashkil etish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga nafaqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yoki parlamentga saylovni, balki xalq deputatlari kengashlariga saylovlarni ham tashkil etish va o'tkazish vazifasi yuklatildi.

Qolaversa, davlat boshqaruvida meritokratiya tamoyillarini tatbiq etish uchun ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasi raisi etib saylanishi mumkin emasligi belgilandi. Bundan tashqari, mamlakat hayotida siyosiy partiyalar rolini hamda fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, shu jumladan, ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonida muayyan g'oya va maqsadlarni ko'zlab ishtirok etishini ta'minlash maqsadida aralash saylov tizimiga o'tish taklifi anchadan beri ilgari surib kelinmoqda.

Bunday saylov tizimida partiyalar muhim o'rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarining ta'sirchan va samarador bo'lishiga intiladi. Partiya o'z dasturi orqali xalqni ishontira olsagina muayyan ovozga erishadi. Bu esa jamiyatimizda siyosiy plyuralizm bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekistonda saylov tizimi transformatsiyasi, O'zbekiston respublikasi Oliy majlisiga saylov to'g'risidagi qonuni.
2. Saylov kodeksi va lex.uz sharhi.
3. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). Yangi O'zbekiston Orifa Ayollari Va G'arb Ayollarining Jamiyatdagi Mavqeyi Va Ularning Huquqlari. In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
4. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notqlikning Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlili (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Ia Karimov Nutqlari Asosida). In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
5. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.



6. Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. *International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory*, 1(2), 414-417.
7. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In *Инновации В Современном Языковом Образовании* (pp. 61-65).
8. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services for Collection of Expenses: Problems and Proposals. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(6 (International Scientific Researcher)), 9-13.
9. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.
10. Bekzodovna, J. M., & Abdullayevna, R. N. Organization of Modern Educational Processes in The Education System.
11. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. *Tamaddun Nuri Jurnali*, 5(56), 380-383.
12. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. *Miasto Przyszłości*, 50, 548-553.
13. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In *Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives* (pp. 76-82).